

Xo‘jayev Sidiq Ahmedovich
FarDU, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Turg‘unova Cho‘lponoy Ilhom qizi
FarDU 2-kurs talabasi

**ALISHER NAVOIY IJODIDA BESHLIK TIMSOLINING IJTIMOYIY-
BADIYAH AMALIYATI FALSAFIY,**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hazrat Alisher Navoiy ijodida beshlik timsolining o‘rni, badiiy-estetik vazifasi, poetik obraz sifatidagi ishtiroki tahlil qilingan. Shoir asarlarida foydalilanilgan raqamli timsollar, xususan, beshlik asosidagi tushunchaning ahamiyati, genezisi, uning ijtimoiy voqelik bilan o‘zaro aloqasi aks etgan. Ushbu raqam mohiyati asosida yaratilgan “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlarni falsafiy va badiiy jihatlarini tahlil qilish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridandir.

Kalit so‘zlar: Besh, beshlik, sehrli raqam, pentatonika, ma’no, major, minor, “Xamsa”, timsol, doston.

KIRISH

Insoniyat tarixini, ayniqsa, zamonaviy dunyoni raqamlarsiz tasvirlab bo‘lmaydi. Jamiatning hozirgi taraqqiyot bosqichi, undagi o‘zgarishlar, yangilanishlar raqamlar hukmiga berilgan. Borliqda ro‘y berayotgan barcha narsa-hodisalar raqamlarga bog‘liq ravishda o‘zgarmoqda. Raqamli timsollar asosida yaratilgan va yaratilayotgan badiiy-ilmiy asarlar genezisini, vazifaviy xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat o‘z millatimizning badiiy tafakkur tarixini o‘rganish, balki jahon ma’naviyati va madaniyati tarixi uchun ham ahamiyatlidir.

O‘zbek xalqi ulug‘ siymolari tomonidan yaratilgan adabiy-madaniy, tarixiy merosni yaxlit holda, ilmiy jihatdan tadqiq etish jamiyat taraqqiyoti omillarini o‘rganish uchun g‘oyat zarurdir. Raqamli timsollarga asoslangan asarlar genezisi, taraqqiyotini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham muhim, tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalar sirasidan hisoblanadi.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mumtoz adabiy asarlar tarkibidagi raqamli timsollar asarlarning o‘zaro o‘xshashligi syujet va kompozitsiyada, obrazlar talqinida, mohiyat va shaklda ekanligi kuzatiladi. Shunday bo‘lsa-da, ularning tasvir ko‘lami, ifoda va bayon yo‘sini, uslubiy jihatlari va poetik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Analogik yaqin asarlardagi o‘zaro o‘xshash syujetlar zaminida milliy o‘ziga xoslik, muayyan voqelik, milliy kolorit o‘z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, so‘z mulkining sultonı Alisher Navoiy ijodida ham raqamli timsollar bilan bog‘liq qarashlar anchagina. Hattoki, o‘zidan avval yashab ijod qilgan salafi solihlari qatorida “besh” raqami mohiyatiga asoslanib yaratgan “Xamsa” asari borligi ham hech kimga qorog‘u emas.

¹ Xo‘jayev S. Uchlik timsolining ijtimoiy-falsafiy va badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss.avtores. Farg‘ona, 2022. 133 bet.

Shoirni butun jahonga tanitgan va zarhal harflar bilan tarix solnomasidan joy olishiga sabab bo‘lgan buyuk asar bu “Xamsa”dir.

Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog‘liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri to‘qqiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab dostonlarga ega bo‘ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo‘lib “Xamsa” yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir.² Shoir ushbu asarni fors-tojik shoiri va mutafakkiri bo‘lgan Abulqosim Firdavsiyning Eron shohlari madh etilgan “Shohnoma” asaridan ta’sirlanib yaratgan. Keyinchalik ushbu an'anani fors-tojik tilida Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi ma’lum va mashhur ijodkorlar davom ettirishgan. Alisher Navoiy davriga kelib, “Xamsa” asarining turkiy tilda yozilishiga ehtiyoj paydo bo‘ladi va shoир an'anaga yana bir yangilik kiritadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Xamsa” asari haqida fikr yuritayotganimizda, rus olimi akademik N.I.Konradning pentatonika haqidagi quyidagi mulohazasini aytib o‘tishimiz o‘rinli: “Xamsa” o‘zi nima? Ruschada bu so‘z “Пятерица” (“Beshlik”) degan ma’noni anglatadi. “Beshlik” — bu nimadandir tajassum topgan “besh” raqami. Buyuk roman. Men u haqida o‘ylaganimda, ko‘z o‘ngimda turlituman “beshlik”lar uzun-uzun saf tortib o‘taveradi. “Besh” sonida xilma-xillikning oliy holati sifatida bus-butunlik g‘oyasi mujassam topgan. Tabiatda gullar hammasi bo‘lib beshtaginadir, ammo ulardagi o‘zgarishlarning had-hisobiga yetib bo‘lmaydi; musiqadagi ohanglar – beshta; ammo ulardagi o‘zgarishlarning son-sanog‘i yo‘qdir. Tag‘in hislar – beshta, ammo ularning barchasi birgalikda bir butunlikni – inson sezgilari tizimini tashkil etadi. Ranglar – beshta, ammo ular bir butunlikni tashkil etadi – ma’lum rang qorishmasini. Dostonlar beshta — bu shunday bir butunlikki, uni inson hayoti chaqirib oladi. Hayotning aynan mana shu oliy butunligi haqida bizga bu hayotda ishtirok etuvchi kuchlarning barcha xilma-xilliklari va ziddiyatlari bilan birgalikda o‘z “Xamsa” si bilan dalil va isbot keltirib, Alisher Navoiy eslatib turadi. Ustozi Jomiy kabi Navoiy ham mutrib bo‘lganligini eslaylik, ularning asarlari orasida musiqa bo‘yicha ham ishlar bor. Shu bois “Xamsa” ga musiqa jihatidan yondashsa bo‘ladi.³

Darhaqiqat, besh dostondan iborat “Xamsa” asarini besh bosqichli intervalli tizim — pentatonikaga qiyoslagan holda tahlil qilishimiz mumkin.

Pentatonikada bitta tovush qatori bo‘ladi, biroq unda beshta alohida, bir-biridan mutlaqo farq qiladigan, butun bir tovush yoki bir yarim tovush miqdoridagi uzilishlari bo‘lgan tovushlar bor. Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, pentatonika tovushlar qatori beshta xilma-xil ohangda vujudga keltiriladi, har bir ohang esa o‘zicha sado beradi va o‘z ohang, jarangiga ega bo‘ladi. “Xamsa” dostonlari ham shunday: ular beshlik tizimi ostida birlashib turgan holatda ham, barchasining o‘ziga xos ko‘rinishi, olami bor. Pentatonikaning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, undagi har bir ohang o‘zi mustaqil yangraydi. Biri — sof major sifatida, ya’ni katta tovushlarni ifodalagan holda bo‘lsa, boshqasi — sof minor, ya’ni kichik tovushlar tizimi sifatida; uchinchisi — majorga “yaqinlashuvchi” bo‘lsa, to‘rtinchisi — minorga “yaqinlashadi”. Beshinchi tizim esa, umuman boshqacha — major va minorni ajratib bo‘lmaydigan o‘zgacha ohang.

“Xamsa” dostonlari tahliliga ham yuqoridaqicha munosabat bildirishimiz mumkin.

² Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik.— Toshkent, 2019

³ Конрад Н.И. Ренессанс ва Навоий. Жаҳон адабиёти, 2006, февраль.

Pentatonikada ko‘zda tutilganidek, besh butunlikdagi birinchi qism major bo‘lishi kerak. Ushbu tizimga juda katta mas’uliyat yuklanadi, chunki har qanday butunlikning ma’no-mohiyati doimo dastlabki qismdan joy oladi, ba’zida yaratilayotgan asarning ahamiyati, maqsadi va hattoki xulosasi ham aynan shu tarkibdan joy olishi mumkin. “Xamsa” asarining ilk dostoni hisoblangan “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) ga mana shu mas’uliyat yuklangan. U g‘oyat serqirra, o‘zining janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan boshqa dostonlardan ajralib turadi. Dostonning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkirning teran axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g‘oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta’sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratib beradi. Doston boshidan orifona ruxda ifodalangan. Alisher Navoiy ushbu dostonda o‘zi e’tiqod qilgan shayxlar, valiyalar siymosini chizib ular orqali iymon va e’tiqod g‘oyalarni ilgari suradi. Va ushbu siymolarni boshqa dostonlar voqealari bayonida ham ulug‘lab tilga oladi, komil inson ramzi sifatida ifodalab beradi.

Navbatdagi e’tiborimizni beshliklarning ikkinchi qismi, jahon klassik adabiyotining muhabbat bobida yaratilgan shoh asarlaridan biri “Farhod va Shirin” dostoniga qaratamiz. Ushbu dostonning minorga monand tarafi shundaki, voqealar bayoni davomida asar qahramonlari bir sur’atda, ya’ni sokinlikda harakatlanishadi. Farhodning bu dunyoga kelib, Alloh ishq yo‘lida chekkan iztiroblari, Uning visoliga erishish uchun uddalab o‘tgan qahramonliklari — barchasi dard, qayg‘u, xomushlik bilan kechadi. Ushbu dostonning mana shunday sokin tarzda boshlanib, xuddi shunday yakunlanganidan: Farhodning bu olamga ishq bilan yig‘lab kelib, vafot etishida ham ishq bilan bu dunyodan ko‘z yumishi hodisasi ham boshqalaridan ajralib turishining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Ajal tig‘in chekib sursang ne bo‘ldi,

Meni bir qatla o‘ltursang ne bo‘ldi.

G‘aribi xasta-yu mahzun emanmu,

Balo vodisida Majnun emanmu.⁴

“Farhod va Shirin” dostonida Navoiy Farhod va Shirin kabi ideal qahramonlar obrazini yaratdi. Ular eng oliv insoniy ideallar uchun yashadilar va shu maqsadga sadoqatda ibrat bo‘lib qoldilar.⁵

Butunliklarning uchinchi, ya’ni majorga “yaqinlashuvchi” qismiga “Layli va Majnun” dostonini muvofiq tarzda keltirishimiz mumkin. Dostonga bejizga majorga “yaqinlashuvchi” ta’rifini bermadik. Chunki asar voqealari mobaynida qahramonlarning major singari keskin burilishlar, qaltis vaziyatlarga duch kelish bilan birga, minor yanglig‘ sokin holatlarga tushib qolishlarining ham guvohi bo‘lamiz. Ishq mashaqqati go‘yo kunduzi yurib sahroni yalangbosh-yalangoyoq kezmoq kabi, kechasi yurib o‘rmonni quolsiz kezmoq kabi mushkul ish, albatta. Shunga monand, ishqning manzili ham rohat-farog‘at, unga olib borar yo‘l esa, xatarlidir. Dostonda Majnun ishqni xoslar ishqni sifatida ulug‘lanib, u yurgan yo‘l Alloh vasli umidida o‘zni qurban qilish yo‘li

⁴ Alisher Navoiy . Farhod va Shirin . G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1989 - y., 590 – bet.

⁵ Қаюмов А. «ФАРХОД ВА ШИРИН» сирлари. — Тошкент: Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san’at nashriёti, 1979.

sanaladi. Majnunning bu yo‘lda halok bo‘lishi avvaldan taqdir qilingan bo‘ladi. Shuning uchun Alisher Navoiy o‘z “Layli va Majnun” ining so‘ngida quyidagi baytni keltirgan:

So‘gin nechakim uzatdim oxir,

Yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir.⁶

“Xamsa” asarining to‘rtinchi qismi “Sab’ai sayyor” dostonini bevosita minorga “yaqinlashuvchi” deyishimiz mumkin. Chunki asar bosh qahramoni Bahromning ishq yo‘lida chekkan alam-iztiroblari “Farhod va Shirin” dostonidagi kabi sokin tarzda, bir sur’atda ifodalanadi.

“Beshlik” ning beshinchi qismi, an’ana bo‘yicha yuqori nuqtadir. Beshinchi qism — “Saddi Iskandariy” dostoni. Dostonda dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandar haqida so‘z ketadi. Biz qarshimizda buyuk sarkarda, daho hukmdor va bilishga intiluvchi insonni ko‘ramiz. Dostonning boshqalaridan ajralib turadigan jihat shuki, Navoiy “Saddi Iskandariy” qahramoni Iskandarni hayotdagi bir necha shaxs prototipi asosida yaratadi. E’tiborimizni Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asariga qaratadigan bo‘lsak, quyidagi jumlalarni uchratamiz: “Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o‘g‘li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo. Ba’zi sekiz o‘g‘ul debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur Rus naslidin”.⁷ Demak, bunda shoir Iskandarni payg‘ambarlarga olib borib taqagan.

“Tarixi muluki ajam” asarida esa Iskandarni Doroning o‘g‘li, Misrlik Bozurning o‘g‘li kabi jumlalarni keltirib o‘tadi.⁸

Bundan tashqari, dostonning o‘zida bayon qilinib o‘tilgan Iskandar va Doro o‘rtasidagi ixtiloflar, kelishmovchiliklardan u Aleksandr Makedonskiy degan taxminlar ham kelib chiqishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazi barcha rivoyat, afsona, tarixiy voqealar va Navoiyning xayolot olamiga tegishli bo‘lgan umumiy obraz, ya’niadolatpesha, mukammal shoh obrazi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisini, shubhasiz, uning “Xamsa”ga kirgan dostonlari tashkil etadi. “Besh” raqami mohiyati asosida yaratilgan ushbu dostonlar orqali shoir o‘z davrining ilg‘or g‘oya va intilishlarini badiiy jihatdan juda keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Asarning shuhrati makon va zamon chegaralarini hatlab o‘tib, bugungi kungacha yetib kelgani sababi sifatida bir tarafdan asar tarkibidagi dostonlarning pentatonika intervallar tizimiga monand ravishda, ba’zan sokin, ba’zida jo‘shqin tarzda ifodalanganligini keltirishimiz mumkin. Zeroiki, hayotimizdagi barcha narsa bir-biriga raqamlar vositasida birikib, umumiylilik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

⁶ Navoiy A. Layli va Majnun. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi , 2006.

⁷ Alisher Navoiy . "Tarixi anbiyo va hukamo". Elektron variant.

⁸ Alisher Navoiy . " Tarixi mulki Ajam " . Elektron variant .

- 1.Xo‘jayev S. Uchlik timsolining ijtimoiy-falsafiy va badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss.avtoref. Farg‘ona,2022. 133 bet.
- 2.Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik.— Toshkent, 2019.— 519 bet.
3. Конрад Н.И. Ренессас ва Навоий. Жаҳон адабиёти, 2006, февраль.
- 4.Қаюмов А.«ФАРҲОД ВА ШИРИН» сирлари. — Тошкент: Fafur Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1979.— 166 бет.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 - y., 590 - bet
- 6.Алишер Навоий. Хамса, Танқидий матн, Нашрга тайёрловчи П. Шамсийев. Т. : " Фан ", 1960 й.
7. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
8. Nazarova H. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. ISSN: 2181-1784 (Print); SJIF: 2021-5.423
- 9.Alisher Navoiy. “Tarixi anbiyo va hukamo”. Elektron variant.
- 10.Alisher Navoiy . “Tarixi mulki Ajam “. Elektron variant.
11. Internet manbalari.